

# O'ZBEK MILLIY ANSAMBLARINING SHAKLLANISHIDA MA'NAVIY-FALSAFIY TAMOYILLAR VA ULARNING JAMIYATDAGI IJTIMOIY INTEGRATSIYADAGI ROLI

## THE SPIRITUAL AND PHILOSOPHICAL PRINCIPLES IN THE FORMATION OF UZBEK NATIONAL ENSEMBLES AND THEIR ROLE IN SOCIAL INTEGRATION IN SOCIETY

ДУХОВНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПРИНЦИПЫ В ФОРМИРОВАНИИ УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ АНСАМБЛЕЙ И ИХ РОЛЬ В СОЦИАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ ОБЩЕСТВА

**Jo'rayeva Maftunaxon Baxtiyorjon qizi**

maftunaj056@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8447-6861>

Farg'ona Davlat Universiteti

1-bosqich magistranti

**Abstrakt:** Ushbu maqolada O'zbek milliy ansamblarining shakllanishidagi ma'naviy-falsafiy tamoyillar tahlil qilinadi va ularning jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyadagi roli ko'rib chiqiladi. Milliy ansamblar madaniy meros sifatida nafaqat san'at namunasi, balki ma'naviy birdamlik va milliy o'zlikni shakllantirishda muhim ijtimoiy vosita sifatida faoliyat yuritadi. Tadqiqot natijalari milliy ansambllarning jamiyatning madaniy va ijtimoiy barqarorligidagi ahamiyatini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** milliy ansamblar, ma'naviy-falsafiy tamoyillar, ijtimoiy integratsiya, madaniy meros, milliy o'zlik

**Abstract:** This article analyzes the spiritual and philosophical principles underlying the formation of Uzbek national ensembles and examines their role in social integration

within society. National ensembles, as a cultural heritage, function not only as artistic expressions but also as important social instruments in fostering spiritual unity and national identity. The research highlights the significance of national ensembles in maintaining cultural and social stability in society.

**Keywords:** national ensembles, spiritual-philosophical principles, social integration, cultural heritage, national identity

**Аннотация:** В статье анализируются духовно-философские принципы формирования узбекских национальных ансамблей и рассматривается их роль в социальной интеграции общества. Национальные ансамбли, как культурное наследие, выступают не только в качестве художественного выражения, но и важного социального инструмента для укрепления духовного единства и национальной идентичности. Результаты исследования подчеркивают значимость национальных ансамблей для поддержания культурной и социальной стабильности в обществе.

**Ключевые слова:** национальные ансамбли, духовно-философские принципы, социальная интеграция, культурное наследие, национальная идентичность

## Kirish

Milliy madaniyat va uning turli shakllari jamiyatning ma’naviy poydevorini tashkil etadi. Xususan, milliy ansambllar nafaqat san’at sohasining yorqin namunasi, balki xalqning o‘ziga xos ruhiyati va falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim madaniy jarayonlardandir. Ularning shakllanishi va rivojlanishi nafaqat san’atkorlarning mahoratiga, balki jamiyatning umumiy ma’naviy muhitiga ham bog‘liq. Bugungi kunda, milliy ansambllar jamiyatda ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy birdamlikni oshirishda katta rol o‘ynamoqda. Shu bois, ushbu tadqiqotda milliy ansambllarning shakllanishidagi ma’naviy-falsafiy tamoyillar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni batafsil o‘rganiladi.

Milliy madaniyat – bu bir xalqning tarixiy tajribalari, urf-odatlari, an'analari va san'atining yig'indisidir. Milliy ansambllar esa aynan shu madaniyatning jonli ifodasi sifatida paydo bo'ladi. Ular nafaqat musiqiy, raqs va teatr san'ati vositasida xalqning o'ziga xosligini namoyish etadi, balki millatning ichki dunyosi, qadriyatlari va ruhiyati haqida chuqur ma'lumot beradi. Har bir ansambl tarkibidagi raqqoslar, musiqachilar va xonandalar o'zlari bilan birga butun xalqning tarixiy-madaniy merosini ham olib yuradi.

Milliy ansambllarning shakllanishi jarayonida bir necha asosiy tamoyillar mavjud. Birinchi navbatda, ular milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir xalq o'z tarixiy yo'li davomida o'ziga xos an'ana va qadriyatlarni shakllantirgan. Milliy ansambllar esa shu qadriyatlarni hayotga olib kirib, yangi avlodga yetkazishda muhim vosita bo'ladi. Misol uchun, milliy liboslar, musiqa asboblari va raqlar orqali yoshlar o'z xalqining tarixi bilan tanishadi, milliy iftixonr tuyg'usini his qiladi. Ikkinchi tamoyil – ansambllarning jamiyatda ijtimoiy birdamlikni ta'minlashdagi roli. Bugungi kunda ko'plab jamiyatlar ko'p millatli va ko'p madaniyatli shaklda rivojlanmoqda. Shunday murakkab tizimlarda milliy ansambllar turli madaniyatlar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Ular xalqaro va mahalliy festivallarda ishtirok etib, madaniyatlararo muloqotni rag'batlantiradi, odamlar o'rtasida o'zaro hurmat va tushunishni oshiradi. Uchinchidan, milliy ansambllar ma'naviy va falsafiy tamoyillarni avaylab saqlashga hissa qo'shamdi. Ularning repertuarida ko'pincha xalqning tarixiy voqealari, afsonalari va dostonlari aks etadi. Bu esa o'z navbatida, jamiyatning ma'naviy poydevorini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ansamblarda ijro etiladigan har bir qo'shiq yoki raqs aslida xalqning umr kechirgan sinovlari va g'alabalarini aks ettiruvchi ma'naviy hikoyadir.

Shuningdek, milliy ansambllar ijodkorlari uchun ham bu jarayon juda muhimdir. Ular nafaqat san'atkor, balki xalq vakili sifatida o'ziga yuklangan missiyani anglab, o'z ishlarini fidoyilik bilan bajaradi. San'atkorlarning mahorati va professionalizmi ansamblning sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga, jamiyatning san'atga bo'lgan munosabati va qo'llab-quvvatlashi ham katta ahamiyatga ega.

Natijada, milliy ansambllar jamiyat hayotida nafaqat estetik zavq manbai, balki ma'naviy barqarorlik va milliy birdamlik ramzi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ular xalqning

tarixiy xotirasini saqlab qolish, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashga o‘rgatish va butun jamiyatni birlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy ansambllar aslida oddiy raqs yoki qo‘sish jamoasi emas, ular xalqning tarixini, ruhiyatini, madaniyatini bugungi avlodga yetkazib beradigan tirik ko‘prik desak adashmaymiz. Har bir xalq o‘ziga xos urf-odat va qadriyatlarni asrlar davomida shakllantirgan, ansambllar esa ana shu merosni saqlab qolish va uni keng ommaga yetkazishda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yoshlar bu ansambllar orqali o‘z xalqining kimligini chuqurroq anglaydi, o‘z tarixiga, madaniyatiga bo‘lgan faxr tuyg‘usi kuchayadi.

**Xulosa:** Bugungi kunda jamiyatlar tobora ko‘p millatli tus olib borayotgan bir vaqtda, milliy ansambllar xalqlar o‘rtasida madaniy ko‘prik bo‘lishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat san’at orqali zavq bag‘ishlaydi, balki odamlar orasida o‘zaro hurmat va birdamlikni kuchaytiradi. Ayniqsa xalqaro festival va tadbirlarda bunday ansambllarning ishtiroki orqali o‘z millatimizni dunyoga tanitish imkoniyati tug‘iladi.

Milliy ansambllar – bu bizning tariximiz, madaniyatimiz va ruhiyatimizning jonli ko‘zguysi. Ular orqali biz o‘zligimizni his qilamiz, qadriyatlarmizni anglaymiz va o‘zimizga ishonch hosil qilamiz. Milliy ansambllar nafaqat san’atkorlarning ijodi, balki butun xalqning ma’naviy birligini mustahkamlovchi muhim omildir. Shu bois, ularning faoliyati jamiyat hayotida katta o‘rin tutadi va kelajak avlod uchun beqiyos merosdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holatda ba’zi tavsiyalar berilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Bular; Milliy ansambllarning faoliyatini yanada rivojlantirish uchun davlat va jamiyat tomonidan ko‘proq e’tibor va moliyaviy yordam ajratilishi lozim.

Yoshlarni milliy san’atga jalb qilish maqsadida maktablarda va madaniyat markazlarida maxsus dasturlar tashkil etilishi kerak.

Ansambllarning ijodiy faoliyati va repertuarini boyitish uchun xalq artistlari va yosh iste’dodlar o‘rtasida doimiy muloqot va hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Milliy ansambllarning xorijiy madaniyatlar bilan almashinushi va festival ishtiroklari kengaytirilishi, shunda madaniyatlararo muloqot rivojlanadi.

Kelajakda milliy ansambllar yangi avlod uchun yanada katta ilhom manbai bo‘lishi mumkin. Texnologiyalar yordamida ularning ijodiy ishlarini kengroq auditoriyaga yetkazish, yoshlar orasida milliy madaniyatga qiziqishni oshirish imkoniyatlari ko‘payadi. Shuningdek, ansambllar milliy san’atni zamonaviy shakllarda ifodalash orqali global madaniyat maydonida o‘z o‘rnini mustahkamlashi kutilmoqda. Buning uchun esa har birimiz milliy merosimizga hurmat bilan qarab, uni saqlash va rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘sishimiz zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Raximov S, Parpiyeva.N. „Milliy istiqlol g’oyasi. Asosiy tushuncha va tamoyillar” Toshkent 2003
2. E. Umarov, M.Abdullayev. „Ma’naviyat va marifat asoslari” Toshkent 2006
3. Milliy madaniyat va madaniyatshunoslik bo'yicha ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanmalar
4. Alldata.uz
5. Ilmiybaza.uz